



Sohibqiron bobom mening

Miltiqboy Xonnazarov

Bobolarim daho bo'lgan
Ko'hna ona zaminda,
Ishi bilan dong taratgan
Poyonsiz keng jahonda.
Dono bo'lib bobolarim
Fan beshigin tebratgan.
Yana biri olim bo'lib,
Osmon sirin o'rgatgan.
Bitta bobom asos solgan
Algoritm faniga.
Tabib bobom g'ishtin
qo'ygan
Tibbiyotning faniga.

Yer yuzining xaritasin
Chizgan bobomning biri,
Amerikani kashf aylagan
Kolumbdan ko'p ilgari.
Bobolarim qilgan ishin
Sanasam son yetmaydi,
Aytaversam birin-birin
Qog'oz, qalam yetmaydi.
Qaysi birin aytar
bo'lsam,
Bir-biridan donodir.
Bir-biriga ular ustoz,
Donolardan a'lodir.

Ular ichra bir bobom bor,
Buyuklardan buyukdir.
Buyuklarning orasida
Nomi, ishi ulug'dir.
Bobom mening sohibqiron
Dunyoni lol qoldirgan,
Dunyo fani kitobiga
Nomin o'yib yozdirgan.
Amir Temur bobom doim
El-u yurtga bosh bo'lgan,
Tajovuzkor Chingizlarni
Turon zamindan quvgan.
Dushman sari ot o'ynatib,
Qalbiga qo'rquv solgan,
Ko'plab qo'shni yurtlarni
Qullikdan ozod qilgan.

Bilimdon ham hunarmandni
Bobom doim qo'lladi.
Ular uchun imkon berib,
Ezgulikka yo'lladi.
Obod aylab el-u yurtni,
Shahar, qishloq qurdirdi,
"Kuch – adolatda" ekanligin
Odamzodga bildirdi.
Toshkentning qoq o'rtasida
Bobom minib otiga,
Zavqlanib qarab turar
Xalqimiz hayotiga.
Barchamizni chorlaydi u
O'qish hamda mehnatga.
Ozod yurtni obod qil deb,
Chaqirmoqda xizmatga.



Temir bobom o'gitiga
Bizlar amal qilamiz,
Qadamlarni dadil tashlab,
Olg'a qarab yuramiz.

Ozod Vatan sha'ni uchun
Jonni fido qilamiz,
Barcha ishda mardonavor
Ko'krak kerib turamiz.



1. She'rda bobolarimizga qanday ta'rif berilgan?
2. Qaysi bobolarimizning qilgan ezgu ishlari she'rda sanab o'tilgan? Ular haqida yana nimalarni bilasiz?
3. Nima uchun Sohibqiron bobomiz "Buyuklardan buyukdir" deb ulug'lanyapti?
4. She'rda avlodlarga aytilgan da'vatga o'z munosabatingizni bildiring.
5. Bobomizning haykali qayerlarda o'rnatilgan?



1. She'rning har bir bandini alohida o'qing va mazmunini izohlang.
2. Amir Temur bobomiz haqida 4 ta ma'lumot ayting.
3. She'r mazmuni yuzasidan 3 ta savol tuzing.



She'rni ifodali o'qing. She'r matnidan foydalanib, hikoya tuzing va unga sarlavha qo'ying.